

MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOVNING XX ASR JADIDCHILIK HARAKATIDA TUTGAN O'RNI

Shomatov Bobirbek Alisher o'g'li
O'zbekiston Milliy Universiteti Xorijiy
filologiya fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish
yo'nalishi 2-kurs talabasi .

[Tel:+998902219068](tel:+998902219068)

Annatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida jadidchilikka bo'lgan munosabatlarning o'zgarishi, shuningdek, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'lining yashab o'tgan yillari, bir qator asarlari va uning jadidchilikka qanday bog'liqligi haqida so'z yuritiladi.

Аннотация. В данной статье говорится об изменении отношения к джадидизму за годы независимости, а также о годах жизни Мунавваркори Абдурашидхана, ряде его произведений и его связи с джадидизмом.

Abstract. This article talks about the changes in the attitude towards jadidism during the years of independence, as well as the years of Munavvarqori Abdurashidkhan's life, a number of his works and his connection to jadidism.

Kalit so'zlar: Turkiston, Jadidchilik, ma'rifatparvarlik, Munavvarqori Abdurashidxon, pedagogik asarlar, quloqlik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Uchinchi Renessans, shuningdek, ma'rifatparvar bobolarimiz-jadidchilik haqida nutq so'zlaydi. Prezidentimiz o'z nutqida "O'tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz-jadidchilik, ya'ni, yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni anglash g'oyalarini bayroq qilib, kurash maydoniga mardonavor chiqqalarini barchamiz bilamiz. Bu ulug' zotlarning maqsadi-jaholat va quloqlik girdobida qolib kelayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg'or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo'liga olib chiqishdan iborat edi.

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o'qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g'aflat uyqusidan uyg'otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi. Bundan tashqari bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi zamirida ana shunday ilug' ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg'onish davrlariga asos slogan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo'lamiz"-dedi davlat raxbari.¹ XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda keng quloch yozgan, milliy harakatlari rivojida muhim rol o'ynagan jadidchilik harakatini ko'rib chiqish dolzarb masalalardan biriga aylangan. So'ngi yillarda ham jadidchilik harakatini o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bilamizki o'sha paytlarda, jadidchilik harakatlarini va g'oyalarini millatchilikda ayblash oddiy holat bo'lib qolgan edi. Ammo ko'rib turibmizki mustaqillik qaror topishi bilanoq bir qator adiblar Munavvarqori, Fitrat, Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi jadidlarga bo'lgan munosabatlar mutlaqo o'zgardi.² Bundan tashqari 2020-yil 30- sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyondalarini mukofotlash to'g'risida" gi farmoniga binoan, Vatanimiz tarixining g'oyat murakkab davrida-XX asr boshlarida o'zining ma'rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta'lim-tarbiya tizimini yaratish hamda yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta'minlashga qo'shgan beqiyos hissasini inobatga olib, quyidagi ma'rifatparvarlar "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi:

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/17/renaissance/>

² https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ozodlik_radiosi

Abdulla Avloniy- ma'rifatparvar adib, pedagog, jamoat arbobi;

Mahmudxo'ja Behbudiy-Turkistondagi jadidchilik harakatining asoschilaridan biri, adib, pedagog va olim;

Munavvarqori Abdurashidxonov - atoqli ma'rifatparvar murabbiy, adib, muharrir va jamoat arbobi.³

Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li ham o'zining nutqlarida mamlakatni, xalqni milliy zulm va ma'rifiy quloqlikdan xalos etishning yagona yo'li ma'rifatda deb bot-bot takrorlagan ma'rifatparvar jadidlar sirasiga kiradi. Turkiston jadid darg'alaridan biri hisoblangan Munavvarqori Abdurashidxonov-O'rta Osiyo jadidchilik maktabining asoschisi hisoblanadi. U 1878-yilning 4-noyabrda Toshkent shahrining Shayxontohur dahasidagi Darxon mahallasida ziyoli oilada tug'ilgan. Uning otasi Abdurashidxon Sotiboldixon o'g'li mudarris, onasi Xosiyat otin Xonxo'ja Shorahimxo'ja mudarris qizi otinoyi bo'lgan. U oilada uchinchi farzand bo'lgan. Dastlab uning kata akalari A'zamxon va Muslimxon unga muallimlik qilishgan. Munavvarqori otasidan yosh yetim qolgani tufayli dastlab ta'lim-tarbiyani onasidan olgan. So'ng o'z davrining mashxur o'qituvchisi Usmon domladan ilmi qiroat va tavjidni o'rganib, hofizi Qur'on bo'lgan. Keyinchalik u Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsilni oxiriga yetkazmay, Toshkentga qaytib imomlik va muallimlik bilan shug'ullangan. 1903- yildan jadid maktablarida ochiq dars bergan. 1904-yildan ijtimoiy-siyosiy madaniy hayotga aralasha boshlagan. 1908-yil uning "sabzavor", "Yer yuzi", "Tajvidal Qur'on" kitoblari ham bosilib, yangi usulfagi maktablarda darslik sifatida qo'llangan. Munavvarqori ibn Abdurashidxon turli jamiyat va uyushmalar tashkilotchisi. U "Jamiat Indodiya", "Turon", "Turkistin kutubxonasi", "Umid", "Maktab", "Ko'mak" jamiyat, tashkilot, shirkat va uyushmalarda muassis, muavin, rais bo'lib faoliyat yuritgan.⁴ Yevropa savdo-sanoat, ilm-fanini o'rganishga chaqirgan,

³ <http://www.ozodlik.org/content/article/25369613.html>

⁴ https://www.scribd.com/document/352795141/Munavvar-Qori-Abdurashidxonov-Tanlangan-asarlar#from_embed

ma'naviy quloqlikni qoralagan. Chor va Sho'ro hukumatlari olib borgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi izchil kurash olib borgan. "Sho'royi Islom" tashkilotining ideologiyasi, rahbari, shuningdek, "Turk odam markaziyati", "Istihod va taraqqiyot", "Milliy istihod", "Nashri maorif" kabi jamiyat, firqa va tashkilotlar faoliyatiga rahbarlik qilgan. U vijdon erkinligini inkor etmagan dunyoviy demokratik davlat tarafdori bo'lgan. Shu sababli Qo'qon shahrida tashkil topgan Turkiston Muxtoriyatini qo'llab-quvvatlagan. Umr bo'yi o'z Vatanini mustaqil ko'rishni istagan.⁵

Munavvarqori ibn Abdurashidxon o'z faoliyati davomida pedagogik, matbuotchilik, muharrirlik, adiblik bilan cheklanmay jiddiy siyosiy faoliyat ham olib borgan, shu sababli, mustamlaka hukumati tomonidan bir necha bor hibsga olingan. Huquqshunos D. Toshqulovning ishlarida ko'rsatilgandek ma'rifatparvarlar, jumladan Munavvarqori asarlarida ham mustamlaka-feudal jamiyatning siyosiy-huquqiy masalalari markaziy o'rin tutadi. Jumladan Munavvarqori, o'z asarlarida hokimiyatning qonunsizlik va porazo'rlik, haddan ziyod og'ir soliqlar kabi zulmkorligi ko'rinishlarini ayamay tanqid qiladi. Jadidlar mustamlaka Turkistonni mahalliy ma'muriyati vakillarining saylov tizimini qoralashadi, chorizmning soliq siyosatiga ham norozilik bildiradilar. Yevropa va Rossiyaning ko'pgina ma'rifatlardan farqli o'laroq jadidlar dinni rad etishmadi, chunki ular ateist emas edilar. Munavvarqori fikriga ko'ra qo'shni davlatlar ilm-fani, chet el yozuvchilari asarlarini, O'g'yust Kant asarlarini o'zlashtirish lozim deb aytadi - Munavvarqori. 1905-1907- yillarda Turkistonda jadidchilik harakati tashkiliy va g'ovayiv, jihatdan, chiniqadi. Munavvarqori va uning ijodiy faoliyati to'g'risida suratga olingan hujjatli

5

https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Munavvarqori_Abdurashidxon_o%CA%BBg%C A%BBli#cite_ref-5

film Munavvarqori ning quyidagi so'zlari bilan boshlangan. „Ey qardoshlar, voy millatdoshlar, ko'zimizni g'aflat uyqusidan ochib, atrofimizga nazar solmog'imiz lozimdir. Har millat o'z saodat hol va istiqbolini muhofazasiga birinchi vosita ilm olmoqqa qanoat hosil qilib, ilm va maorifga ortiq darajada qo'shish hosil qilgan bu zamonda bizlar bu g'aflat va jaholatimizda davom etsak, istiqbolimiz nihoyatda xavfli bo'lib hamma olamga masxara va kulgi bo'lmog'imizga hech shubha yo'qdir.” Tarixchu Naim Karimov ta'biri bilan aytganda ma'lumki Turkiston Muxtoriyat hukumati zo'ravonlik yo'li bilan tugatilgach, o'z vatanlarining mustaqil bo'lishini orzu qilgan ziyolilar turli yo'l va usullar bilan bolshevizmga qarshi kurash olib boradilar. Munavvarqori ana shu kurashning oldingi safida bo'libgina qolmay shu kurashga rahbarlik ham qiladi. Shuning oqibati o'laroq 1921 va 1926- yillarda qamoqqa olinadi. Ikkinchi marotaba hibslanganida u qamoqdan sovetlarga qarshi kurash olib bormaslik sharti bilan ozod qilinadi. OTIY Munavvarqorini doimiy nazorat ostiga olib Lev Belskiy siymosida undan jadidlarning kuni kecha olib borilgan va 20-yillar so'ngida ham olib borayotgan faoliyatlari to'g'risida mukammal ma'lumotnoma yozib berishni ham talab qiladi. Agar Munavvarqori jadidlarning sovetlarga qarshi olib borgan va olib borayotgan xatti-harakatlarini yashirgudek yoxud xaspo'shlagudek bo'lsa, uni qamoqqa chiritishini pisanda ham

qiladi. Munavvarqori o'z xotiralarini ana shunday qaltis vaziyatda yozadi.⁶

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Munavvarqori Abdurashidxon har tomonlama mukammal bo'lgan, ma'rifatli, o'z fikr doirasiga ega bo'lgan dunyoqarashi keng hamda o'zining fikriga ega bo'lgan vijdonli va insofli kadrlar tayyorlaydiga dorilfunun ochish G'oyasini ilgari surgan. U o'zining bu qarashlarini 1923-yil iyunda Toshkenda bo'lib o'tgan xalq maorifi mudrlari quriltoyidagi ma'ruzasida bayon etgan. 1923-yilda bu yangi usulda 30 dan ortiq madrasa va eski maktablarda talabalar o'qitilgani ma'lum. Munavvarqori 1922-yildan Turkiston maorifi noziri, keyin esa Toshkentning eski shahar maorif bo'limi muboshiri bo'lib ishladi. U adib va olim

⁶ <https://juyborikalon.uz/uz/news/1139>

sifatida badiiy hamda ilmiy-pedagogik asarlar yaratdi. 1907-yili Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Yer yuzi”, “Havoyiji diniya” kitiblari chop etiladi. Shuningdek, uning axloqiy-estetik qarashlari “Bizda jamiyat”, “Tug’ishganlik sevgisi”, “Dev pechak”, “Qullikka qanday tushdi?” singari hikoyalarida, turli she’rlarida o’z ifodasini topgan. Mavjud murakkab ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy muhitda Munavvarqori milliy ong va milliy g’ururni kuchaytiruvchi yoshlarni ko’zini ochib dunyoni ko’rishga rag’batlantiruvchi “Usuli savtiya” maktablarini ochishga bel bog’laydi va 1901-yilda ochadi ham. U umrining so’ngi yillarida ya’ni Munavvarqori 1926-yil 6-noyabrda nohaq millatchilikda ayblanib, qamoqqa olinadi. Moskva shahridagi Butirka qamoqxonasida qatl qilingan va Vagonkova qabristoniga dafn etilgan. 1991-yilda rasman reabilitatsiya qilingan.⁷

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A. Karimov buyuk ajdodlarimizning ta’lim va tarbiyaning o’zaro uyg’unligi haqidagi qarashlarini umumlashtirib: “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani ta’limdan ajratib bo’lmaydi, bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir,” deb ta’kidlagan edi. Shunday ekan inson shaxsini shakllanishida tarbiya ustuvor ahamiyatga ega bo’ladi. U ta’lim berish jarayonini, barcha ma’rifiy tadbirlar majmuasini o’z ichiga oladi. Har qanday ta’lim-tarbiya bilan uyg’unlashgandagina yetuk ma’naviyatga, ma’naviy barkamol, komil insonni voyaga yetkazishga zamin bo’ladi. Munavvarqori Abdurashidxonov makurasining ta’siri o’sha davrda taqiqlangan bo’lsada, u hali hamon o’z kuchini yo’qotgani yuq. Uning qarashlari va g’oyalari milliy pedagogik tizimimizda o’z aksini topgan desak mubolag’a bo’lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ozodlik_radiosi
2. <http://www.ozodlik.org/content/article/25369613.html>

⁷ <https://cyberleninka.ru/article/n/munavvar-qori-abdurashidxonovning-pedagogik-qarashlari>

3. https://www.scribd.com/document/352795141/Munavvar-Qori-Abdurashidxonov-Tanlangan-asarlar#from_embed
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Munavvarqori_Abdurashidxon_o%CA%BBg%CA%BBli#cite_ref-5
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/munavvar-qori-abdurashidxonovning-pedagogik-qarashlari>
6. <https://juyborikalon.uz/uz/news/1139>
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/17/renaissance/>